

ENG BUYUK MEROS

*Umida ZARIPBOYEVA,
Namangan davlat universiteti,
Tarix yo'nalishi talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada atmosfera va uning hayot uchun ahamiyati, shiddatli zamonda mavjud ekologik muammolar va ularni hal qilishga doir turli qarashlar, Orol dengizi fojeasi va uni yechish masalalari, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda O'zbekistonda mavjud ekologik muammolar va boshqalar haqida batafsil to'xtalib o'tiladi.

KALIT SO'Z VA IBORALAR

Orol dengizi, O'zbekiston, atmosfera havosi, suv yetishmovchiligi muammosi, Chernobil, Stokgom konferensiyasi, global isish, "Inson va Tabiat" kitobi, ozon tuynuklari, ekologik haftalik, Harakatlar strategiyasi.

Tabiat – keng ma'noda butun borliq olam va uning xilma-xil shakllari; tor ma'noda kishilarning moddiy va ma'naviy ehtyojlarini qondirish manbayi bo'lgan atrof tabiiy muhit. Inson o'zining hayoti davomida butun borliqdan emas, balki uni o'rab turuvchi va uning tasir doirasida turgan atrof tabiiy muhitdan foydalanishi mumkin. Tabiatdan va resurslardan oqilona foydalanish hamda tabiiy atrof-muhitni saqlashning ilmiy asoslari va amaliy metodlarini aniqlashni bilish hozirda shiddat bilan rivojlanayotgan taraqqiyot davrida muhim dolzarb omil hisoblanadi.

XXI asrda dunyo iqlimida mutlaqo kutilmagan o'zgarishlar yuz berdi, ammo hali hamon Global isishni tan olmagan bir guruh mutaxassislar uchun iqlimning be'mani qiliqlari hazilga o'xshab tuyulmoqda. Keyingi o'n yillikda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bilimlar uzluksiz bo'lib bormoqda. Masalan zilzilalar, tayfunlar, toshqinlar keskin sovuqlar, yuqori haroratlar tabiatga va insonlarga qanchalar katta zarar keltirmoqda. Hozirgacha olimlar va insonlar kosmik va geologik jarayonlarning iqlim o'zgarishiga ta'sirini aniq tushunib yetganlari va unga baho berishganlari yo'q. Chunki iqlim o'zgarishi haqida dunyo olimlarining

fikri turlicha, kimdir iqlim sovub ketishidan bashorat qilsa, yana kimdir iqlim o'zgarib ketayotganini asoslashadi. Shunday qilib hozirgi vaqtda tabiatga doir turli fikrlar turlicha va yechimlar ham.

Ammo keyingi yuz yilda havo haroratining isib borishi olingan malumotlarga ko'ra aniq bo'lib bormoqda. Chunki, keyingi yuz yilda iqlim o'zgarishi davomli bo'lib bormoqda. Yerdagi iqlim o'zgarishini kimdir astranomik jarayonlar tasirida silichni holda deb bilsa, yana kimdir antropologik omillar ta'sirida Global isish bormoqda deydi. Aslida Yerimiz o'z hayot jarayonida bir necha marta global isish va sovush fazalarini boshidan kechirganligi isbotlangan. Endilikda fiziklar, astrofiziklar, kosmologlar, gelioseysmologlar, astroseysmologlar, va iqlim o'zgarishi bo'yicha shug'ullanadigan olimlarning ma'lum qilishicha, kosmik jarayonlarning yer shariga ta'siri juda katta. Ammo inson bu jarayonga ta'sir qilolmaydi, yer sharida bo'ladigan turli hodisalarga tayyor bo'lishi kerak degan fikrni olg'a suradi. Iqlim o'zgarishi bugun ona yerimizga ochiqdan – ochiq tahdidi qilmoqda, buni keyingi o'n yillik yoz oylarida bo'lib o'tayotgan voqealardan ochiqdan-ochiq ko'rish mumkin bo'lmoqda¹.

Shu tariqa insoniyat tarixida tabiat bilan jamiyat o'rtasida to'xtovsiz va xilma xil o'zaro ta'sirlar ro'y bergan. Jamiyat va tabiat, inson va yashab turgan muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammosi insoniyatning abadiy muammolaridan biridir. Jamiyat bilan tabiat birgaligini ta'kidlar ekanmiz, biz uning timsolida ularning moddiy jihatdan birligini tushunamiz. Jamiyat ijtimoiy qonunlar bilan birga fizika, kimyo va biologiya qonunlari ham amal qiladi. Bunda inson, jamiyat tabiatning bir qismi sifatida tavsiflanadi. Insonning jismoniy va manaviy hayoti tabiat bilan chambarchas bog'langandir. Bu tabiat o'z-o'zi bilan chambarchas bog'liq demakdir, zero inson tabiatning bir qismidir, uning farzandi, rivojining gultojidir. Mazkur holatda, avvalambor, tabiat inson va jamiyat paydo bo'lishining yetakchi omili ekanligi ko'rinadi. Tabiat rivojining majmuasi bo'lmish insoniyat tabiatga tobora ko'p o'z ta'sirini o'tkazadi, inson faqat har xil o'simlik va

¹ Yormatova D. Y., Xushvaqtova X. S. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018. – B. 3-4.

hayvonot turlari o'rnini o'zgartiribgina qolmay, binobarin ularni ham shu darajada o'zgartiradiki, uning faoliyati natijasida yer shari umumiy o'limga mahkum bo'lgandagina u bilan birga yo'q bo'lib ketishi mumkin.

Insonning ijodiy imkoniyatlari, uning tabiati va o'zgartirish qobiliyatlariga kelganda, ular chek-chegarasizdir. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida odamlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarsiz ishlab chiqarishning o'zi ham, inson hayoti moddiy sharoitlari ham bo'lmaydi, demakki jamiyat ham bo'lmaydi. Inson o'zining tabiatga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirining oqibatlarini sezgach va bilgach, tabiatdan oqilona, rejali, tejab-tergab foydalanish va uni muhofaza qilish zarurligi haqida o'ylay boshlaydi.

Tabiiy muhit holatning inson tasirida o'zgarishi jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir ekologik muammolarni ajratish mumkin. Ayrim yirik shahar, sanoat markazlari, alohida tumanlarda mahalliy, Orolbo'yi, Chernobilda mintaqaviy ekologik teng vaziyatlar vujudga kelgan. Ozon tuynuklari muammosi, kislotali yomg'irlar, cho'llanish, dunyo okeanining ifloslanishi va boshqalar umumsayyoraviy ekologik muammolar hisoblanadi. Yer yuzida ekologik inqiroz xavfining real ekanligini ko'rsatadi. Insonning tabiatga bevosita va bilvosita, ijobiy va salbiy, ta'sir shakllari ajraladi. O'rmonlarning kesilishi, hayvonlarni ovlash, yangi yerlarni o'zlashtirish, konlarni qazish natijasida inson tabiatga bilvosita ta'siri bevosita tasirning salbiy oqibatlari sifatida namoyon bo'ladi. Masalan yangi yerlarning o'zlashtirilishi ham o'simliklar va hayvonlarning qirilishiga olib keladi. Tashlandiq yerlarni, o'rmonlarni tiklash, ko'kalamzorlashtirish, o'simlik va hayvonlarni ko'paytirish insonning tabiatga ijobiy ta'siriga kiradi. Har qanday ijobiy ta'sir ham salbiy bo'lishi mumkin. Tabiatni muhofaza qilishning ahamiyati xilma-xil bo'lib, ularni umumlashtirib quyidagi iqtisodiy, ilmiy, sog'lomlashtirish – gigiyena, tarbiyaviy, estetik, yo'nalishlarga ajratish mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish bir necha ming yillik tarixga ega. Lekin ushbu muammoga alohida e'tibor XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida vujudga keldi. 1864-yili AQSHda J. Mershning "Inson va tabiat" kitobi bosilib chiqdi.

Unda tabiatni muhofaza qilishning zarurligi haqida dastlabki fikrlar berildi. 1910-yil Shvetsariyada Yevropada birinchi tabiatni muhofaza qilish jamiyati tuzildi. 1913-yil Bernda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha birinchi xalqaro kengash chaqirildi. 1948-yil Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi tuzildi. Tabiatni muhofaza qilish harakatlari XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa, kuchaydi.

O'zbekistonda tabiatni ilmiy asosda muhofaza qilish amalda 1920-yildan boshlangan². Tabiatni muhofaza qilish hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Hozirda O'zbekistonda asrashimiz kerak bo'lgan dolzarb muammolar mavjud. Orol dengizining qurishi, qurg'oqchilik va boshqa global ekologik muammolar bugun insoniyatni tashvishga solmoqda. Bu kabi ekologik muammolar bugungi kunda insoniyatdan tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni, tabiiy resurslardan unumli tejamkortarзда foydalanishni taqozo etmoqda. Buning uchun odamlar oddiy ekologik qoidalarga rioya qilishsa kifoya³.

Misol uchun, aholi vakillari o'z tomorqalaridan foydalanayotganda mineral o'g'itdan foylanmanmaganlari ma'qul. Uning o'rniga begona tuproq, qum, parranda, chorva chiqindisidan foydalanilsa, tuproq unumdorligi oshib, ekologiyaga zararining oldi olinadi. Mustaqillikdan oldin tabiatni muhofaza qilishning tashkil qilinishi talabga to'la javob berilmaganini ta'kidlash lozim. Tabiiy resurslar, ishlab chiqarish tashkilotlariga davlat mulkchiligi sharoitida xo'jalikni ko'p yilga belgilangan qat'iy reja asosida yuritish, mahalliy sharoitlarini to'la hisobga olmaslik natijasida atrof muhitning ifloslanishi, resurslardan isrofgarchilik bilan foydalanish salbiy oqibatlariga olib kelgan. Ushbu sohada uzoq vaqtgacha maxsus takomillashgan davlat boshqaruvi tizimi bo'lmagan. Ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalari talabga to'la javob bermagan.

Hozirgi vaqtda mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarida tabiatni muhofaza qilish o'ziga xos tashkiliy va huquqiy asoslariga egadir. Tabiatni muhofaza qilishning tashkiliy va huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. Konstitutsiyaning 50, 54, 55 va 100- moddalarida fuqorolarning ushbu

² Nazarov. A.A. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – T.: “O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot matbaa birlashmasi, 2020. – B. 15-16.

³ <https://yuz.uz/uz/news/ona-tabiatni-asrash-har-birimizning-burchimizdir> .

sohasidagi huquq va majburiyatlari, atrofmuhitga munosabat va boshqaruv tizimi bo'g'inlarining faoliyati belgilangan⁴. Jumladan, 50-moddada “Fuqorolar atrof tabiiy muhitiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar” deyiladi. 100-moddada atrof muhitni muhofaza qilish mahalliy hokimiyat organlari vazifasiga kirishi ta'kidlangan.

O'zbekistonda tabiiy sharoitlarni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to'g'irisida”gi qonun belgilab beradi.

Respublikamizda 1995-yildan boshlab tabiatdan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy konsepsiyasi yaratildi. Bu konsepsiya tabiatdan oqilona foydalanish mummosini hal qilishga yordam bermoqda. O'zbekistonda ekologik siyosatning asosiy vazifasi respublikamizda tashqi muhitni sifat jihatdan yaxshilash va kishilarni salomat bo'lishga erishishdir⁵.

1992-yilda qabul qilingan qonunga muvofiq O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishga taaluqli huquqiy munosabatlarni tartibga solish Oliy majlisning mutlaq vakolati doirasiga kiradi. Bularga tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatini belgilash, davlat ekologiya dasturlarini tasdiqlash, ushbu sohadagi Respublika qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish, tabiatni muhofaza qilishga taaluqli qonunlar ijrosini muvofiqlashtirib borish va boshqalar kiradi. Tabiatni muhofaza qilish ishlariga umumiy rahbarlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. Qonunning 8-moddasida “Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning davlat boshqaruvi tizimi” quyidagicha belgilangan: “Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy rerurslardan foydalanishning davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, davlat boshqaruvi mahalliy idoralari amalga oshiradilar”.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. / <https://constitution.uz/oz>

⁵ Tilovov Turob. Ekologiya. – T.: “O'qituvchi”, 2014. – B. 136-137.

1992-yili 5-iyunda Stokgolm shahrida BMTning ekologik masalalarga bag'ishlangan konferensiyasida Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kunini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilingan edi. Shundan buyon ushbu sana munosabati bilan turli tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, bog' yaratish, obodonlashtirish aksiyalarini o'tkazib kelinadi. An'anaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi BMT Taraqqiyot Dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda mazkur ekologik sanaga bag'ishlab "Ekologik haftalik" tadbiri tashkil qilinadi.

Tabiatni muhofaza qilish, xudo bergan ne'matlarni asrab avaylash O'zbekistonda yashaydigan nafaqat O'zbekiston balki butun dunyoda yashovchi xalqlarning eng asosiy vazifalaridan biridir. Inson dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lsa avval o'zini o'zgartirishi kerak deganidek, tabiatni muhofaza qilish ham eng oddiy narsalardan boshlanadi. Masalan suvni isrof qilmasdan ishlatish, atmosfera ifloslanmasligiga e'tibor berish va hokazo. Garchi bizning dunyoyimiz suv zahirasiga to'la bo'lsada, ammo inson ichishi uchun yaroqli bo'lgan suv manbayi atigi 2,5 % hisoblanadi. Dunyo okeanidagi muzlarning erishi esa keskin iqlimning o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu meroslarni ko'z qorachig'imizbek har bir tabiat manbalariga e'tiborli, ularga ajdodlarga meros qoldirish uchun asrab-avaylash darkordir.